



NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-oktabr)

65,5



**Xizmatlar sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi, % da**

11 116,2



**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi, ming
so'mda**

75,7




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

**Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (1- noyabr holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar (yanvar-oktabr)



Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1- noyabr holatiga ko'ra)

65,4

2024- y.



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2020- y.



57,3

Soni, birlikda

2024

14 646

2023

14 821

Yillar

2022

18 432

2021

17 656

2020

14 729

Soni, birlikda

2024

2 227

2023

2 459

Yillar

2022

1 382

2021

2 771

2020

2 754

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-oktabr)

2024- y.

67,2



Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi, % da


53,8



2020- y.


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-oktabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar-oktabr)



¹⁾ Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.


Tuman(shahar)lar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-oktabr)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Namangan viloyati jami *	34 356,8	100,0	112,3
Namangan sh.	7 261,1	21,1	113,7
tumanlar:			
Mingbuloq	639,8	1,9	110,5
Kosonsoy	861,6	2,5	110,7
Namangan	915,4	2,7	110,1
Norin	756,7	2,2	109,5
Pop	1 101,7	3,2	111,3
To'raqo'rg'on	1 093,1	3,2	107,7
Uychi	1 068,3	3,1	109,1
Uchqo'rg'on	845,4	2,5	111,7
Chortoq	953,4	2,8	111,1
Chust	1 181,2	3,4	107,6
Yangiqo'rg'on	849,7	2,5	110,4

*Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-oktabr)



Tuman(shahar)lar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-oktabr)


	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Yangiqo'rg'on	3 558,0	108,0
Kosonsoy	3 747,5	108,2
Chust	4 104,1	105,5
Norin	4 272,8	107,4
To'raqo'rg'on	4 422,0	105,3
Chortoq	4 403,8	108,8
Uchqo'rg'on	4 530,8	109,6
Uychi	4 559,7	106,7
Pop	4 644,5	109,3
Mingbuloq	4 636,6	108,
Namangan t.	4 708,9	107,6
Namangan sh.	10 330,2	110,9

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-oktabr)



Ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining
umumiy hajmida
kichik korxona
sub'yektlarining
ulushi 75,7 foizni
tashkil etdi.

Tuman(shahar)lar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-oktabr)



Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-oktabr)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami *	34 356,8	100,0	112,3
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 020,6	3,0	118,7
Moliyaviy xizmatlar	2 654,9	7,7	101,5
Transport xizmatlari	3 747,0	10,9	118,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 247,5	9,5	117,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	13 874,0	40,4	112,0
Savdo xizmatlari	7 325,8	21,3	115,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	492,2	1,4	109,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 165,8	3,4	117,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	600,6	1,8	110,3
Ijara xizmatlari	298,3	0,9	101,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	754,1	2,2	108,8
Shaxsiy xizmatlar	1 338,7	3,9	106,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	185,5	0,5	104,0
Boshqa xizmatlar	899,3	2,6	108,9

*Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)

■ Hajmi, mlrd so'mda
 📈 O'sish sur'ari, % da



Tuman(shahar)lar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar-oktabr, mlrd so'mda)

Namangan sh. 1 820,4

Chust 149,5

To'raqo'rg'on 95,3

Chortoq 87,3

Pop 87,1

Uchqo'rg'on 85,4

Uychi 79,8

Kosonsoy 62,8

Namangan 59,6

Yangiqo'rg'on 49,0


Mingbuloq 43,6

Norin 40,3

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-oktabr)

Yordamchi moliyaviy faoliyat



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar-oktabrida 93,8** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi **68,5** foizni yoki **1 820,4** mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan ham Namangan shahrida yuqori o'sish sur'ati **105,8** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr)

2024- yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli asosiy qismini, ya'ni **58,2** foizni tashkil etdi.



 Hajmi, mlrd so'mda
 O'sishi (kamayishi), % da



Tuman(shahar)lar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-oktabr)



Namangan sh.	1 673,6	+19,5
To'raqo'rg'on	405,6	+7,1
Chortoq	364,5	+17,6
Uychi	354,3	+8,3
Chust	353,3	+4,0
Pop	351,6	+5,8
Yangiqo'rg'on	323,3	+13,0
Namangan	320,6	+11,0
Norin	308,8	+11,0
Kosonsoy	302,6	+13,1
Uchqo'rg'on	297,4	+10,6
Mingbuloq	237,0	+10,9


 Hajmi, mlrd so'mda

 O'sishi , % da

Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr)


Transport xizmatlari-ning umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **86,7** foiz.

Namangan shahrida transport xizmatlari hajmi **1 204,5** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **126,0** foizni tashkil etgan.



Tuman(shahar)lar kesimida transport xizmatlari


(2024- yil yanvar-oktabr)



■ Hajmi, mlrd so'mda ⚙️ O'sishi, % da

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr)

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 247,5** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **9,5 %** ni tashkil etdi.



Tuman(shahar)lar kesimida avtomobil transporti xizmatlari

(2024- yil yanvar-oktabr)

Namangan sh.	863,7	+18,2
Chust	283,2	+18,1
Uychi	217,0	+17,9
Namangan	211,6	+18,7
To'raqo'rg'on	183,0	+11,8
Chortoq	178,6	+18,3
Uchqo'rg'on	178,0	+18,6
Yangiqo'rg'on	176,4	+17,6
Pop	169,2	+19,4
Kosonsoy	152,8	+16,9
Norin	151,4	+16,2
Mingbuloq	134,0	+18,8



2024- yil yanvar-oktabr oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **86,6** foizga yetdi.

Avtomobil transporti umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi **26,9** foizni yoki **863,7** mlrd so'mni tashkil etdi.

■ Hajmi, mlrd so'mda

■ O'sishi, % da

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr)



+9,6

+10,0

+25,0


+21,0

+18,7

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-oktabr** oylaridagi ulushi **93,0 %** ni tashkil etdi.



Tuman(shahar)lar aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-oktabr)



Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-oktabr)

■ Hajmi, mlrd so'mda

● O'sishi, % da




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-oktabr** oylaridagi ulushi **65,3** foizni tashkil etdi.



Tuman(shahar)lar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-oktabr, mlrd so'mda)



Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Namangan shahriga to'g'ri keladi. **2024- yilning yanvar-oktabr** oylari davomida mazkur hududda ushbu turdagi xizmat hajmi **716,3** mlrd so'mga yetdi yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **61,4** foizini tashkil etadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024- yil yanvar-oktabr** oylaridagi ulushi **42,3** foizni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **33,2** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **24,5** foizni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)



Tuman(shahar)lar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-oktabr)

Namangan sh.	192,2	◆	+11,8
Chortoq	43,3	◆	+5,4
To'raqo'rg'on	37,0	◆	-18,9
Kosonsoy	27,4	◆	+16,2
Namangan	24,1	◆	+14,3
Chust	18,4	◆	+18,6
Pop	16,4	◆	+13,1
Uchqo'rg'on	12,7	◆	+17,5
Yangiqo'rg'on	11,6	◆	+17,7
Uychi	10,7	◆	+14,6
Mingbuloq	6,2	◆	+12,4
Norin	4,7	◆	+12,4

■ Hajmi, mlrd so'mda ◆ O'sishi, % da

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi


(yanvar-oktabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **86,4** foizni tashkil etdi.

Tuman(shahar)lar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024- yil yanvar-oktabr)




■ Hajmi, mlrd so'mda

🏠 O'sishi, % da

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)

2024- yil yanvar-oktabr

o'ylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **3,0 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **83,1** foiz.



Tuman(shahar)lar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-oktabr)



Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar-oktabr)

 Hajmi, mlrd so'mda

 O'sishi (kamayishi), % da



Tuman(shahar)lar kesimida ijara xizmatlari


(2024- yil yanvar-oktabr, mlrd so'mda)



2024-yilning yanvar-oktabr oylarida ijara xizmatlari hajmi **298,3** mlrd so'mga yetdi.


Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **65,0** foizni tashkil etadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **20,8** foizini tashkil etadi.


Tuman(shahar)lar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-oktabr)



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)



Tuman(shahar)lar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-oktabr, mlrd so'mda)



2024- yilning yanvar-oktabr oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **185,5** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi **77,5** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

"Ta'lim" seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.